



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/PZSL1864

ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR

Komilova Lola Nosilloevna*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti*komilova2811@gmail.com

ORCID:0009-0001-0047-9408

Annotasiya: Ushbu maqolada ona tili ta'limida qo'llanib kelinayotgan test metodi va turlari, test tuzish tamoyillari, darajali testlarning 4 turi va unga :r misollar keltirilgan. Bugungi kunda test ta'lim tizimining deyarli har bir bosqichida eng faol qo'llaniladigan metodlardan biri hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida va oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan dars mashg'ulotlarida foydalaniladigan testlar test topshiruvchining bilimini baholash, ma'lum fan sohasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini belgilash imkonini bersa, Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari testlari saralash vazifasini ham bajaradi. Test ham muayyan qonun – qoidalar, tamoyillar asosida tuziladi va izchil, mantiqan to'g'ri, savol mazmuni aniq yoritilgan testlar foydalanuvchi e'tiroz tug'dirmaydi. Maqolada test tuzish jarayonida ahamiyat qaratish lozim bo'lgan jihatlar, test tuzish tamoyillari va test tuzish jarayonida duch kelinadigan ayrim xatoliklar va ularni bartaraf etish usullari xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: test, testning vazifalari, test tuzish tamoyillari, test tuzish jarayonidagi kamchiliklar, test tahlili, ochiq test, yopiq test.

Abstract: This article presents the methods and types of tests used in native language education, the principles of test design, 4 types of level tests and examples. Today, testing is one of the most actively used methods at almost every stage of the education system. While tests used in general secondary schools and higher education institutions allow you to assess the knowledge of the test taker, determine his knowledge and skills in a certain field of study, tests for entrance exams to higher education institutions also perform a selection function. The test is also designed based on certain laws, rules, principles, and tests that are consistent, logically correct, and clearly explain the content of the questions do not cause objections from the user. The article discusses the aspects that should be paid attention to in the process of test design, the principles of test design, and some errors encountered in the process of test design and methods for eliminating them.

Keywords: test, test objectives, test design principles, shortcomings in the test design process, test analysis, open test, closed test.

Аннотация: В статье представлены методы и типы тестов, используемые в обучении родному языку, принципы разработки тестов, 4 типа уровневых тестов и примеры. Сегодня тестирование является одним из наиболее активно используемых методов практически на всех этапах системы образования. В то время как тесты, используемые в общеобразовательных средних школах и высших учебных заведениях, позволяют оценить знания абитуриентов и определить уровень их знаний и навыков по определенному предмету, тесты на вступительных экзаменах в высшие учебные заведения выполняют также функцию отбора. Тест также структурирован на основе определенных законов, правил и принципов, а тесты, которые последовательны, логичны и четко объясняют содержание вопросов, не вызывают возражений у пользователя. В статье рассматриваются аспекты, которые следует учитывать в процессе создания тестов, принципы создания тестов, а также некоторые ошибки, встречающиеся в процессе создания тестов, и методы их устранения.

Ключевые слова: тест, цели теста, принципы разработки теста, недостатки в процессе разработки теста, анализ теста, открытый тест, закрытый тест.



Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini nazorat qilish va baholash, mazkur tizimda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlashda pedagogik kvalimetriya metodlari muhim o'rin tutadi. Test usuli jahonning ko'plab rivojlangan davlatlarida amalda sinovdan o'tgan. «Test» (ingl. «sinov») shaxsning bilimlari, qobiliyatlari yoki ko'nikma va malakalarini baholash uchun ishlatiladigan savollar, masalalar yoki amaliy mashg'ulotlar yig'indisini anglatadi. Hozirgi paytda «test» deganda kirish imtihonining o'zini ham, unda ishlatiladigan alohida muqobil javobli test topshiriqlarini ham, umumiy test usulini ham tushunish mumkin. «Test topshirig'i» deganda esa testning tarkibiga kirgan muqobil javoblari berilgan yoki boshqa turdagi alohida topshiriq tushuniladi.

Test topshiriqlari quyidagi jihatlari bilan afzalliklarga ega:

- test topshiriqlarida o'quv fanining asosiy mazmunini qamrab olish imkoni mavjud;

- o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlar, ko'nikma va malakalar darajasini tez va qulay aniqlash mumkin;

- o'quvchilar bilimini haqqoniy va tabaqalashgan holda baholash darajasi oshadi;

- o'quvchilar bilimini nazorat qilishga kam vaqt sarflanadi;

- kitob va mavzu ustida mustaqil ishlash va tahlil qilish ko'nikma- malakalari shakllanadi.

Test usuli birmuncha texnologik xususiyatga ega bo'lib, bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishda o'qituvchilarning mehnat unumdorligini oshiradi va o'quv dasturining chuqur hamda har tomonlama o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Testologiya nazariyasi va amaliyotida shu narsa ma'lumki, test o'quvchilarning bilimini baholashga xizmat qiladi va quyidagi uchta tamoyilga tayanadi:

1. *Testning obektivligi* – ya'ni o'quvchiga qo'yiladigan baho uni qo'yadigan shaxsga bog'liq bo'lmasligi shart.

2. *Ishonchlilik* - bu o'quvchining bilimlarini o'lchashning aniqlik darajasi yoki bir martalik pedagogik o'lchash jarayonida olingan natijalarga qanchalik ishonish mumkinligini bildiradi.

3. *Validlik* - tuzilgan testning o'quv dasturi mazmuniga mosligini bildiradi.

Test tuzilishiga qo'yiladigan talablar:

- test topshiriqlari berilgan struktura (kodifikator)ga ko'ra ehtiyoj asosida tuzilishi va har bir test topshirig'ining qiyinlik darajasi ko'rsatilishi lozim;

- har bir test topshirig'i tegishli ta'lim turi bo'yicha Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi asosida tuzilishi shart;

- test topshirig'i ilmiy asoslangan ma'lumotlar asosida tuzilishi zarur;

- test topshirig'i umumiy qabul qilingan atamalar asosida tuzilib, unda eskirgan, kam ishlatiladigan hamda ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar va iboralar, belgilar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar bo'lmasligi kerak;



-har bir test topshirig'i biror-bir yagona maqsadni ko'zda tutgan holda tuzilishi lozim;

-test topshirig'ining savoli aniq, lo'nda, qisqa ifodalangan bo'lishi, unda zaruriy ma'lumotlar keltirilishi, keraksiz ortiqcha ma'lumotlar ishlatilmasligi, shuningdek, savol ikki xil tushunilmasligi kerak;

-test topshirig'i savolida to'g'ri javobni topishga yordam beruvchi so'z va iboralar ishlatilmasligi lozim;

-test topshirig'ining to'rtta javobi bo'lib, ulardan faqat bittasi mutlaq to'g'ri bo'lishi kerak;

-to'g'ri javoblar ham, noto'g'ri javoblar ham bitta mavzu :rasida bo'lishi shart va ular shakl jihatidan ham bir-biriga yaqin bo'lishi, to'g'ri javob shaklan ajralib turmasligi kerak;

-testning muqobil javob variantlarida so'zlar keraksiz takrorlanmasligi, shuningdek, tushunarli, aniq va qisqa bo'lishi talab etiladi.

-test topshirig'ining muqobil javob variantlarini tuzishda to'g'ri javobni topishga yordam beradigan so'z va iboralar ishlatilmasligi zarur;

-test topshirig'ining noto'g'ri javoblari asosli ravishda tanlanishi kerak;

-test topshirig'ining muqobil javoblari orasida «javoblarning barchasi to'g'ri», «javoblarning barchasi noto'g'ri», «to'g'ri javob yo'q», «to'g'ri javob A va V», «V va D» kabi iboralar ishlatilmasligi lozim.

Test tuzayotganda test echimining vaqt bo'yicha reglamentlashga alohida ahamiyat qaratish lozim. Echimi 2 daqiqadan ko'p vaqt talab qiladigan test topshiriqlari mavjud bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim. O'rtacha hisobda bitta topshiriqni bajarish uchun quyidagicha vaqt ajratiladi:

- matematika - 65 soniya;
- tillar - 32 soniya;
- ijtimoiy va tabiiy fanlar - 41 soniya;
- fakt, atamalarni bilish - 20 - 25 soniya;
- chizma va sxemalarni tushunish - 90 soniya;
- figuralar munosabatlari - 90 - 120 soniya.

Ona tili fanidan tavsiya etilayotgan testlar murakkabligiga ko'ra, 4 ta darajaga bo'linadi. Ko'p variantli test tizimi ta'lim samaradorligini o'quv fanlari bo'limlari bo'yicha xolisona baholash uchun noyob imkoniyatlar yaratdi. O'quvchilarning bilim darajasini yuqori darajada aniqlik bilan belgilashda testlarning murakkablik darajasi muhim ahamiyatga ega. Har bir test bilim o'lchovi uchun xizmat qilishi bilan bir qatorda, ular ma'lum umumiy maqsadlarga ham qaratilgan. Ular quyidagi hollar bilan xarakterlanadi:

Birinchi darajali testlar orqali bitta tushuncha yoki darslikda berilgan ma'lumotlardagi o'quvchining xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, uncha murakkab bo'lmagan bir hodisa yoki qonuniyatni bilishni talab qiluvchi testlar hisoblanadi.

Birinchi daraja: O'quvchining faqat xotirasini va minimal bilim darajasini aniqlashga qaratilgan turli bo'limlar va lug'atlardan tuzilgan oddiy savoldan iborat bo'ladi.



Murakkabligi I darajali bo'lgan testlar juda katta miqdordagi o'quvchilar orasidan bilimi sayoz, tasodifiy, javoblarni asossiz, taxmin-farazlarga tayanib belgilovchi o'quvchilarni ajratish uchun xizmat qiladi. Masalan:

1. Urg'u ona tilining qaysi bo'limida o'rganiladi?

- A) Fonetikada
- B) Orfografiyada
- C) Orfoepiyada
- D) Morfologiyada

2. Nutq tovushlari nechchi turga bo'linadi?

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5

3. Tilshunoslikning qaysi bo'limida so'z birikmasi o'rganiladi?

- A) Leksikologiya
- B) Sintaksisda
- C) Morfologiyada
- D) Grafikada

4. Tuya – sahro kemasi . Ushbu ostiga chizilgan birlikka izoh bering?

- A) tasviriy ifoda
- B) ibora
- C) qo'shma so'z
- D) so'z qo'shilmasi

5. Va bog'lovchisi qanday turdagi qo'shma gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi?

- A) Bog'langan qo'shma gap
- B) ergashgan qo'shma gap
- C) Bog'lovchisiz qo'shma gap
- D) Barchasi to'g'ri

Ikkinchi darajali testlar. Murakkabligi II darajali testlar o'quvchilarning ma'lum mavzular haqida umumiy ma'lumotlarga egaligi, eng asosiy qoida va qonuniyatlarni bilishi hamda ma'lumotlarni xotirada saqlash darajasini aniqlashga qaratilgan. Ikkinchi darajali testlar darslikda keltirilgan ikkinchi, uchinchi darajadagi bilimlarni qamrab oladi yoxud bitta savolning o'zida ikkita birinchi darajali ma'lumotlar so'raladi. O'quvchining xotirasini tekshirish bilan birga tilshunoslikning turli bo'limlari haqidagi bilimlarni talab etadigan savollar. Bu kabi savollarni yechish davomida o'quvchidan o'tilgan mavzular haqidagi bilimlar ham talab etiladi. Bunda bitta savolning o'zida ikkita birinchi darajali ma'lumotlar so'ralishi yoki ikkita savolning o'zida bitta javob so'ralishi ham mumkin. Masalan:

1. Tilshunoslikning qaysi bo'limlarida so'z o'rganiladi?

- A) Leksikologiya va morfologiyada
- B) Sintaksis va leksikologiyada
- C) Dialektologiya va leksikologiyada



D) Leksikologiya va grafikada

2. Grammatika bo'limi quyidagi qaysi turlarga bo'linadi?

A) Morfologiya va sintaksisga

B) Morfologiya va leksikologiyaga

C) Sintaksis va orfoepiyaga

D) Sintaksis va fonetikaga

3. Qaysi so'zda quyi keng unidan so'ng shovqinli, jarangli undosh kelgan?

A) xontaxta B) ozoda C) ota-onalar D) o'g'il-qizlar

4. Qaysi jarangli undoshlar so'z oxirida jarangsiz jufti singari talaffuz etiladi?

A) b, d B) b, z C) b, d, z D) d, z

5. Quyidagi berilgan tez aytishlarning qaysi birida faqat lablanmagan unlilar qatnashgan?

A) To'p-to'p ko'k koptok, har bir to'pda ko'p koptok.

B) Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.

S) O'tkir o'tkir o'roqda o't o'rdi.

D) Hali Vali, Soli sholi o'rdi.

Uchinchi darajali testlar. Murakkabligi I va II darajali testlar yordamida ajratib olingan o'quvchilar orasida iqtidorlilarini aniqlashda III darajali murakkablikdagi ko'p qirrali testlar zimmasiga tushadi. Bilim darajasi bir-biriga yaqin bo'lgan iqtidorli o'quvchilarni kichik masshtabda o'ta aniqlik bilan ajrata bilishda murakkabligi III darajali testlar katta ahamiyatga ega. «Murakkab testlar» tushunchasi aynan III darajali murakkablikdagi testlarga tegishli. Murakkab testlar faqat iqtidorli o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, bunday testlarning javobi bir necha qoida yoki qonuniyatlarni tatbiq qilish yo'li bilan topiladi, mazkur testlar o'quvchidan alohida mushohada, qobiliyat talab qiladi. Murakkab testlar quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga qamrab oladi:

a) test savolining aniqligi va ko'p qirraligi;

b) to'g'ri javob bir necha mavzularning o'zaro tutashish hosilasi ekanligi;

v) muqobil javoblarning bir-biriga o'ta yaqinligi, ya'ni ko'pgina xususiyatlariga ko'ra to'g'ri javobga da'vogar bo'la olishi;

g) chuqur va har tomonlama mushohada yuritishga da'vat etishi.

Quyidagi testlarni Murakkab testlardan farqlash kerak:

a) bir necha topshiriqlarni qamrab oluvchi, ya'ni savollar majmuasidan tuzilgan testlarni;

b) bir-biridan keskin ajralib turuvchi javoblarga ega bo'lib, mutlaq to'g'ri javobning qaysidir xususiyatini o'zida aks ettirmagan testlarni.

Murakkab testlar barcha fanlarda ham da'vogarning o'sha fan :rasidagi qobiliyatini, mavzularning nafaqat umumiy tomonini, balki nozik qirralarini ham chuqur anglashini ko'rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi.

Ona tilidagi uchinchi daraja testlar: Bir necha bo'limlarni taqqoslash, qiyoslash, tahlil qilishni va o'quvchidan jiddiy mantiqiy yondashuvni talab etadigan murakkab yoki kombinatsiyali savollardir.

1. Quyida berilgan so'z birikmalaridan qaysilari turg'un birikma bo'ladi?



1) boshiga etdi 2) qulog'iga quydi 3) o'z yog'ida qovurildi 4) yaxshi ko'radi

A) 2,4 B) 2,3,4 C) 3,4 D) 1,2,3,4

To'rtinchi darajali testlar. Mazkur testlar ijodiy xarakterga ega bo'lib, ular ma'lum ko'lam, hajmdagi ilmiy-mahsuldor faoliyatni nazorat qilishni hisobga olish va baholashga xizmat qiladi. Ushbu testlarni oliygohdan keyingi bosqich ta'limi pog'onalari - malaka oshirish va mutaxassislarni qayta tayyorlash kurslari va fakultetlari tinglovchilari, o'qituvchilar, xalq ta'limi xodimlari, stajyorlar, magistrlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchi-tadqiqotchilar, professorlar, kafedra mudirlari va boshqalarni mas'ul lavozimlarga tayinlash, saylash va ilmiy darajalar berish, attestatsiyadan o'tkazish maqsadida ishlatish mumkin.

Test metodining keng tarqalishi, rivojlanishi va takomillashuviga ko'ra quyidagicha test shakllari mavjud: Test topshiriqlarini to'rtta shaklga ajratiladi: Test topshiriqlarini tuzishda o'zlashtirishning reproduktiv darajasidagi testlar miqdori ortib ketmasligiga e'tibor berish kerak. O'quv materialini ijodiy darajalarda o'zlashtirilganligini aniqlovchi-ochiq testlar, bir nechta javobli-yopiq test, muvofiqlikni aniqlovchi test shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ularga to'xtalib o'tamiz:

Ochiq testlar. Agar test topshirig'i matnida uning tayanch so'zlari yoki gap tushirib qoldirilgan bo'lsa, bunday topshiriq ochiq, tugallanmagan test deb ataladi. Mazkur shakldagi testlarda ta'lim oluvchilarning bitta, ikkita so'zdan iborat qisqa va aniq javob berishlari taxmin qilinadi. Bu haqda testga ilova qilingan yo'llanmada bayon etish kerak bo'ladi va test blankasining bo'sh joyida javob uchun zarur bo'lgan joy qoldiriladi. Masalan:

1. "Harf, harf o'qish va yozish san'ati" ma'nosini anglatuvchi tilshunoslik terminini toping?

Javob: _____

Yopiq testlar. Bu topshiriq sharti (fikir yoki savol) bittasi to'g'ri, qolganlari esa noto'g'ri, lekin haqiqatnamo javoblar majmuidan tarkib topadi. Bunday topshiriqlar berik deb atalishining sababi shundaki, o'quvchi o'z javobini ifoda etolmaydi, u javobni taklif etilgan majmuadan tanlab olishi kerak. Bunday testlar savol va bir necha javoblardan iborat bo'ladi, bu javoblardan biri to'g'ri, qolganlari to'g'riga o'xshash, biroq noto'g'ri bo'ladi.

Masalan:

1. To'g'ri yozilgan so'zlarni toping.

A) qorbo'ron, er yong'oq

B) Markaziy Osiyo, gulbeor

C) o'rin bosar, Qashqadaryo

D) laylak qor, qo'ltiq tumor

Muvofiqlikka oid testlar. Bunday testlarning mohiyati ko'p sonli elementlarning boshqalariga muvofiqligini aniqlashga asoslangan. Bu topshiriqlar «muvofiqlik aniqlansin» degan so'zdan iborat yo'riqnoma asosida tuzilishi lozim. Masalan:

1. Quyidagi fikrlardan qaysi biri to'g'ri?



1. Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar qo'shib yoziladi.
 2. Ikkinchi qismi turdosh otdan iborat bo'lgan atoqli otlar qo'shib yoziladi.
 3. Ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo'lgan qo'shma otlar ajratib yoziladi.
- A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 1, 3 D) 3

To'g'ri ketma-ketlikni aniqlash bo'yicha tuzilgan test. Ma'lum jarayon operatsiyalari ketma-ketligini noto'g'ri sanab berish, aniq fikrdagi so'zlarning to'g'ri tartibini buzish va hokazo yo'llar bilan tuziladi. O'quvchining vazifasiga harakatlarni tartibga solish, raqamlab chiqish kiradi.

Masalan:

1. Ravish holi qatnashgan gaplarni toping.
 - 1) Oilada osoyishtalik, hayotda farovonlik, dunyoda tinchlik bo'lsin.
 - 2) Bola epchillik bilan turdi, qisqa va lo'nda javob berdi.
 - 3) Mardlarcha kurashdi.
 - 4) Botirlarcha harakat qildi.
 - 5) Senday yashayman.
 - 6) Guruchni qopi bilan olishdi.
 - 7) Bolalarday gerdaymayman.
 - 8) Pastkashlardek yalinmayman.
- A) 1,2,3,4,5,6,7,8,9 B) 2,4,6,7,8,9
C) 2,3,4,5,6,7,8 D) 2,3,4,7,8

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ona tili mashg'ulotlarida darajali testlarning ahamiyati katta bo'lib, bunda o'quvchi testning javobini topishi asosiy natija emas, balki yil davomida to'plagan bilimlarini hayotga tatbiq qila olishidir. Hozirgi kunda respublikamizda zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyasi ta'lim va uning sifatini yaxshilashning ustivor yo'nalishlarini belgilab bergan. Ona tili o'qishning obyektiv natijalarini muntazam tahlil qilish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Ta'lim jarayonlarida o'quvchilarga bilim berish, ularning fan bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda o'quvchilar bilimni baholashda og'zaki, yozma, amaliy ko'nikma, muammoli masalalar bilan birgalikda test sinovlaridan ham foydalanib kelinmoqda. Testlar o'quvchi psixologiyasiga u yoki bu ma'noda juda katta ta'sir qiladi, o'quvchi bilimni to'rt bosqichda ya'ni eslash, mulohaza qilish, bir nechta echimlarni topish va bilimlarni hayotga tatbiq etish orqali aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik metod hisoblanadi. Bunda ularga beriladigan test o'quvchining bilim saviyasiga mos bo'lishi nihoyatda ahamiyatlidir. Bola testni yechishga ko'zi etsagina uni ishlashga harakat qilib ko'radi. Test tuzish jarayoni, usullari, test turlari yildan yilga sayqallanib bormoqda, bu esa jamiyatda testing tutgan o'rnini yanada mustahkamlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "O'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.



2. Safo Matchonov, Sharifjon Sariev. Adabiyot fanidan mavzuli test topshiriqlari to'plami. -T. —Sharq||. 2011.
3. Hamzaev Madrim. Ona tili mavzuli test topshiriqlari to'plami. -T. —Sharq||. 2012.
4. Axborotnoma IX. O'zRVM huzuridagi Davlat test markazi.-T. 2001.
5. Farxod Sultonov. Qadimgi dunyo tarixi fanidan mavzuli test topshiriqlari to'plami. -T. —Sharq||. 2011.
6. Bolotov V.A. Kompetentnostnaya model: ot idei k obrazovatelnoy programme / V.A. Bolotov V.V. Serikov // Pedagogika. 2003. №10. – С. 8-14.
7. Duschanov, B.A. Testologiya test tuzish san'ti / B.A. Duschanov, B.S. Raximov, S.K. Cobirova. – Tekst: neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. – 2017. – №16.2 (150.2). С. 27-28.
8. Internet saytlari: n.sportal.ru, eduscan.allbest.ru, pedagogika.websib.ru.

10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Axmadaliyeva Ozoda Iskandar qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 4-bosqich talabasi, Toshkent viloyati Piskent tumani 33-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada 10-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish masalasi ijtimoiy zarurat sifatida yoritilgan. Ishda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishning nazariy asoslari, zamonaviy ta'lim metodlari, shuningdek, mashq va topshiriqlar orqali nutqni faollashtirish usullari tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda nutq o'stirish jarayonining hozirgi holati kuzatishlar asosida o'rganib chiqilgan. Maqola umumta'lim maktablari o'quv jarayoniga amaliy tadbiq etilishi mumkin bo'lgan ilmiy-nazariy va uslubiy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: *Kompetensiya, integrative yondashuv, individual yondashuv, PISA, nutqiy ko'nikmalar, muloqot, hamkorlik, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash.*

Аннотация

В статье вопрос развития устной речи десятиклассников рассматривается как социальная необходимость. В работе изучались теоретические основы развития устной речи студентов, современные методы обучения, а также способы активизации речи посредством упражнений и заданий. При этом на основе наблюдений изучалось современное состояние процесса речевого развития. Статья обогащена научно-теоретическими и методическими рекомендациями, которые могут быть практически применены в образовательном процессе общеобразовательной школы.

Ключевые слова: *Компетентность, интегративный подход, индивидуальный подход, PISA, разговорные навыки, общение, сотрудничество, креативность, критическое мышление.*

Abstrakt

In the article, the issue of oral speech development of 10th graders is covered as a social necessity. Theoretical foundations of students' oral speech development, modern educational methods, as well as methods of speech activation through exercises and tasks were studied in the work. At the same time, the current state of the speech development process was studied based on observations. The article is enriched with scientific-theoretical and methodological



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillovna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadiyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

